



**MUMTOZ MUSIQA ASARLARI RITMIK XUSUSIYATLARIDA  
DOYRA USULLARI IJRO IMKONIYATLARINING O'RNI VA  
AHAMIYATI  
(MAQOMLARNING CHOLG'U BO'LIMI TAHLILI MISOLIDA)**

*Annakulova Dildora Baymuratovna*

*Guliston Davlat Universiteti San'atshunoslik fakulteti An'anaviy xonandalik  
va xalq cholg`ulari kafedrasи o`qituvchisi*

**Anotatsiya:** Mumtoz musiqa asarlari, xususan maqomlardagi asosiy kuy mavzui ko'pincha ritmik va melodik variatsiyalar vositasi bilan turli shakllarga tushiriladi. (*Cholg'u yo'llarda kuy mavzui o'zgaruvchandir*). Ularga yangi-yangi melodik tuzilmalar kiritish bilan kuy yo'li takomillashtiriladi, ularning ta'sir kuchi orrib boradi. *Tasnif, Tarje', Gardun, Muxammas, Saqil yo'llari birin-ketin ijro etilar ekan, ulardagi lad asosi va kuy mavzuining yaqin bo'lgani, kuy jumlalarining rang-barang, ohangdorligi va yoqimliligi hamda doyra usullarining turli-tumanligi bilan butunlay sezilmay qoladi; bunda ijodkor bastakorlarning juda ham ustalik bilan yaratgan maqom yo'llarining originalligi yaqqol ko'zga tashlanadi.*

*Har bir maqomdagи cholg'u yo'llari kishida xushchaqchaqlik, g'amginlik yoki jasoratbaxsh kayfiyatlar qo'zg'ata oladi. O'n ikki maqom haqida musiqa risolalarida aytilgan fikrlar Shashmaqom yo'llariga ham mos keladi. Shashmaqom – O'n ikki maqom tizimidagi sho ''balar birikmasi ekan, olti maqom yo'llarining ruhiy ta'sir kuchi turli-tuman bo'lishi tabiiydir. Chunki har bir maqomda kuy mavzui, lad qiyofasi, doyra usuli turlichа bo'lgan kuy va ashulalar mujassamlangan.*

**Kalit so`z :** doyra usuli, o'zbek xalq musiqasi, o'zbek xalq cholg'ulari, shakllanish va takomillashish, tasnifot, musiqa san'ati, Shark va G'arb musiqashunosligi, musiqiy iboralar, falsafiy xususiyatlar.

O'n ikki maqomdagи Ushshоq maqomi Shashmaqomdagи Rost maqomining sho'basi sifatida foydalanilganligi ehtimoldan holi emas. Ushshоq – shijoatbaxsh,



Rost esa yoqimli va xushchaqchaq kayfiyat baxsh etuvchi maqomlardir. Shunday ekan, ikki xil kayfiyat baxsh etuvchi maqomlar Shashmaqomning tarkib topishida ko‘plab uchraganki, buni O‘n ikki maqom tizimi bilan taqqoslab ko‘rilsa ham ma’lum bo‘ladi. Maqomlarning badiiy-estetik tomonlarini o‘rganish ham maxsus mavzu bo‘lib, chuqur ilmiy tekshirishlarni talab etadi.

Yuqorida aytib o‘tilgan maqomlarda bir xil ism bilan atalgan kuy yo‘llarining lad asosi va kuy mavzulari boshqa-boshqa bo‘lsa-da, doyra usuli bir xil bo‘lishi bilan tavsiflanadi. Demak, ularning Tasnif, Tarje’, Gardun, Muxammas kabi nomlar bilan atalishiga sabab, dastlab ulardagi bo‘lgan usul birligidir. Shashmaqom cholg‘u yo‘llarining hammasi uchun yana bir xos narsa shuki, ular asosan “xona” va “bozgo‘y” deb atalgan kuy bo‘laklaridan tuzilgan. Ular bir yoki bir necha kuy jumlasidan tashkil topishi mumkin.

Xona va bozgo‘ylar maqomlarning cholg‘u bo‘llarida bir nechadan bo‘lishi mumkin. Masalan, Navo maqomining cholg‘u bo‘limidagi Muhammasi Husayniy uch xona va uch bozgo‘ydan iborat bo‘lgani holda Tasnifi Navo o‘n yetti xona va uch bozgo‘ydan iborat.

Maqomlarning cholg‘u bo‘limidagi kuy yo‘llarining doyra usullari ham turlituman va juda murakkabdir. Cholg‘u bo‘limdagi kuy yo‘llari ko‘pincha shu doyra usullari nomi bilan ham ataladi. Masalan, Gardun, Muxammas, Saqil, Samoilalar shular jumlasidandir. Musiqachi bastakorlar o‘tmishda doyra usullarini ifodalashda ma’lum qoidaga asoslangan ritmlar uslubini ixtiro etganlar.

X-XVII asr musiqa risolalarida shu qoidaga asoslangan doyra usullarining namunalari ko‘plab keltiriladi. Bunda, asosan, uzun va qisqa bo‘g‘inlarning ifodasi bo‘lgan undosh harflardan bo‘g‘inlar tuzilib, bo‘g‘inlar birikmasi esa she’r o‘lchovlari va doyra usullarining ruknlarini tashkil etadi□.

Doyra usullarida ishlatiladigan bu ruknlar aruzdag‘i vaznlarni ham ifodalay olgan. O‘tmishda sozanda va xonandalar aruz qoidasini bilmagani holda “tan-tana-tananan” kabi ritm turoqlari vositasi bilan ashula yo‘llariga mos keladigan she’rlarni ham tanlab olganlar. Bu so‘zlar hech qanday ma’noga ega bo‘lmay, ikki undosh harf “T” va “N” birikmasidan tuziladi. Masalan, tan-tana-tananan-tanananan.



Bu ritm unsurlarini nota tizimida taxminan quyidagicha ifodalash mumkin:

Shuni ham  aytib o'tish

lozimki, so'nggi davrlarda musiqachilar bu usul qismlarini boshqacha harf va so'zlar bilan ham ifodalab kelganlar. Masalan, tak-taka-tum, taka-taka-tum yoki bak-bak-bum, baka-bum va hokazo (Xorazm musiqiy tarixchasida, "taq-taqa-gup" shaklida keltirilgan). Lekin ular qanday shaklda olinmasin, doyra usullaridagi uzun-qisqa zarblarni ifodalaydi. Shunday qilib, bu so'z yoki belgi birikmalari vositasi bilan o'tmishda doyra usullari yozma va og'zaki tarzda tushuntirilardi.

Ma'lumki, maqom yo'llarining eng zarur unsurlaridan biri doyra usullaridir. Doyra usullari maqom, kuy va ashula yo'llarini xarakterli tomonlarini ochib berishda hal qiluvchi omillardan hisoblanadi. Maqomlarning tarkibida bo'lgan anchagina kuy va ashulalar variatsiya yo'li bilan ishlangan. Bunda esa doyra usullari muhim rol o'yaydi.

Masalan, ma'lum maqom tarkibida otdosh sho'ba (jumladan, Talqini Ushshoq, Nasri Ushshoq, Ufari Ushshoq kabi)lar doira usulining turlicha bo'lishi bilan bir-biridan farqlanadi. Shashmaqom tarkibidagi qismlarni tushunish uchun ularning murakkab doyra usullarini ajratish, shu usul jo'rligida eshita olish lozim. Oddiy xalq kuylarida usul bilan kuyni birgalikda tinglash maqomdagi kabi murakkab emas.

Maqomlar ashula bo'limida esa, doyra usulidan tashqari she'r o'lchovlari ham maqom qismlarining xarakterini belgilab beruvchi omillardandir. Chunki olti maqomning bir xil nom bilan ataluvchi sho''ba yoki qismlarida doyra usuli va she'r o'lchovlari o'xshashdir. Qo'lyozma manbalarida keltirilgan doyra usullari namunalari orasida (Gardun, Muhammas, Saqil, Ufar, Talqin kabi) Shashmaqom kuy va ashula yo'llari uchun ham asos qilib olingan ritm o'lchovlarini uchratish mumkin. Masalan, ularda keltirilgan Ufar usulini shunday tasavvur etish mumkin:




Bu usul maqomlarda va o‘zbek-tojik xalq kuy va ashula yo‘llarida ko‘plab uchraydi.

Kuya jo‘r bo‘ladigan doyra usuli dastlab kuy yo‘lining xarakteri, uning harakat doirasi, ritmik-intonatsion xususiyatlariga bog‘liq holda yuzaga kelgan bo‘lsa-da, keyinchalik usullar kuyning holatiga ham kuchli ta’sir ko‘rsatadi. Kuy turli usullarga tushirilganda juda katta o‘zgarishlarga uchraydi. Shashmaqom shakllanishi va uning taraqqiyoti jarayonida bunday doyra usullarining roli juda katta bo‘lgan edi. Shu usullar vositasi bilan Shashmaqom yo‘llari uchun ayniqsa xarakterli bo‘lgan ritmik va melodik variatsiyalar ishlanib, maqomlar takomillashib bordi, amal naqsh va peshravlarning xilma-xil turlari paydo bo‘ldi.

Bunday doyra usullarining nomi saqlanib qolgan bo‘lsa-da, keyingi davrlarda ular kuyning xarakteriga bog‘liq holda juda katta o‘zgarishlarga uchraganini alohida aytib o‘tmoq lozim. (Shuning uchun ham biz quyida Shashmaqomning nota qitoblarida keltirilgan usullarigagina suyanib, izoh berib boramiz).

Usullar maqomlarning tuzilish xarakterini belgilovchi omillaridandir. Ularni ajrata olish maqomlar qiyofasini to‘g‘ri tushunishga imkon beradi. O‘tmishda mashhur bo‘lgan Saqil, Hafif, Ramal, Xazaj, Du-yak, Ufar, Foxtiy, Turk, Muxammas, Avsat, Chorzarb, Zarbul-Futh, Durafshon, Samoiy, Chanbar, Miatayn kabi ritm o‘lchov bahrlari va doyra-nog‘ora usullari bizning kungacha yetib kelgan. Bu usullar musiqa asarlari, xususan maqom yo‘llarida uchraydi. Ular qachon va kim tomonidan yaratilgani bizga qorong‘i. Ularni sodda yoki murakkabligiga qarab, oldin-keyin yaratilganini bilib olish mumkin. Manbalarda ko‘rsatilishicha, dastavvalgi usul inson nabzining urishidan olingan. Tomirni barmoq bilan ushlab ko‘rilsa, uning go‘yo “tan-tan”ga o‘xhash bir tekis urayotgani bilinadi. Olimlar buni “Usuli zarbi qadam” (“Qadimiy zorb usuli”), deb ataganlar. So‘nggi davrlarda, shu usul asosida murakkabroq usullar yuzaga kelgan. Zarbi qadimning asli shakli bunday bo‘lgan:

### Zarbul qadim





Uning murakkabroq shakllari  $\frac{2}{4}$ ,  $\frac{4}{4}$ ,  $\frac{5}{4}$ ,  $\frac{6}{4}$ ,  $\frac{3}{4}$ ,  $\frac{8}{4}$ ,  $\frac{3}{4}$ ,  $\frac{3}{8}$ ,  $\frac{5}{4}$ ,  $\frac{3}{4}$ ,  $\frac{3}{4}$ ,  $\frac{4}{4}$  kabi takt-ritm o‘lchovlarida bo‘lgan deyish mumkin.

Manbalarda keltirilgan usullar, shubhasiz, Shashmaqomda ham ishlatilgan. Lekin ular zamon o‘tishi bilan juda katta o‘zgarishlarga uchragan.

Shashmaqom qiyofasiga usul jihatidan nazar tashlansa, maqomlarning turkumlarini yaratilishida ularning cholg‘u qismlari va sho‘balarida usullar dastlab sodda bo‘lib, keyin ijro etiladigan qismlarda sekin-asta murakkablasha boradi.

Masalan, Tasnif, Tarje'larda usul ancha sodda bo‘lsa, Muhammas va Saqillarda juda murakkab, 16, 24 taktni tashkil etadi (quyiroqqa qarang!) Saraxborlarda esa usul mazkur “Zarbi qadim”ning o‘zi  $\frac{2}{4}$  takt-ritm o‘lchovida bo‘lsa, Talqinlarda -  $\frac{3}{4}$   $\frac{3}{8}$ , Nasrlarda  $\frac{6}{4}$ , Ufarlarda esa  $\frac{6}{8}$  yoki  $\frac{3}{4}$  takt-ritm o‘lchovlarida murakkablasha boradi. Bundan taronalar mustasnodir.


Shunday qilib Shashmaqomning tuzilishida musiqa madaniyatining soddalikdan murakkablikka tomon tarixiy taraqqiyot yo‘li aks ettirilgan. Usullargina emas, kuy yo‘llari ham maqom qismlarida ma’lum qonuniyat asosida soddalikdan sekin-asta murakkablasha boradi. Shuning uchun ham, Shashmaqom xalq musiqamizning klassik namunasi bo‘lib, o‘zining kuy mavzui jihatidan turli-tuman, usullarning esa qariyb hammasini o‘zida mujassamlashtirgan.

Nota kitoblarining o‘zida ham doyra usullari turlicha berilgan. V. A. Uspenskiy yoki Yunus Rajabiy variantlarida bir turli usul bo‘lsa, B. Fayzullayev, S. Sohibov, F. Shohobov yoki M. Yusupov variantlarida doyra usullari ularda anchagina farq etadi. Shuning uchun ham quyida keltirilgan misollarda biz muvofiqroq variantlardan foydalandik.

Shashmaqomning cholg‘u yo‘llari har bir maqomda turlicha sonni tashkil etib, oltitadan o‘ntagachadir. Maqomlarda bir xil nom bilan ataladigan cholg‘u qismlari mavjud. Binobarin, har bir maqomning boshqacha nomlanadigan yo‘llari ham bor. Dastlab, har bir maqomda mavjud bo‘lgan, bir xil nom bilan ifodalanuvchi cholg‘u yo‘llari bilan qisqacha tanishib chiqamiz. Ular Tasnif, Tarje’, Gardun, Muxammas, Saqil va boshqa nomlar bilan ataladiki, bu haqda yuqorida ham eslatib o‘tilgan edi.

Tasnif – arabcha bo‘lib, “yaratilgan asar”, kuy demakdir. Bu yerda maqomlarning cholg‘u bo‘limidagi bosh asar ma’nosи ham bor. Maqomlarning cholg‘u bo‘limlari Tasnif kuy yo‘llari bilan boshlanadi. Ularning tasniflari – Tasnifi Buzruk, Tasnifi Rost, Tasnifi Navo, Tasnifi Dugoh, Tasnifi Segoh va Tasnifi Iroq nomlari bilan ataladi. Tasnifning takt-ritm o‘lchovi , o‘rniga qarab bo‘lib, ular maqomlardan kuy harakati jarayonida o‘zgarmaydi. Tasniflarning doyra usullari, asosan, bir xil bo‘lsa-da, ba’zan kuy xarakteriga qarab qisqaroq shaklda ham kelishi mumkin.


Buzruk, Navo maqomlarning Tasniflarida doyra usuli asosan yoki taktli bo‘lib, nota yozuvida shunday ifodalanadi:




yoki usul variantlari shaklda quyidagichadir:



Tasnif Rost va Tasnifi Iroqda doyra usuli ikki taktga qisqargan bo‘lib, boshlanishdagi zARBda bak o‘rnida bum zarblari tushadi.



Tasnifi Dugoh va Tasnifi Segohning doyra usullari uch taklidir.



Tasniflar maqomlarning har birida mustaqil musiqa mavzulariga ega bo‘lib, kuy yo‘llari bir-biridan tubdan farq qiladi. Ularning kuy bo‘laklari, xona va bozgo‘ylari tarkibi ham turlichadir.

Tasnifi Buzruk – 8 xona va 8 bozgo‘ydan.

Tasnifi Rost – 7 xona va 8 bozgo‘ydan,

Tasnifi Navo – 17 xona va 3 bozgo‘ydan,

Tasnifi Dugoh – 7 xona va 8 bozgo‘ydan,



Tasnifi Segoh – 4 xona va 4 bozgo‘ydan,

Tasnifi Iroq - 8xona va 9 bozgo‘ydan iborat.

Umuman cholg‘u bo‘limidagi kuy yo‘llarini tashkil etgan xonalar avjga tomon harakat etar ekan, ular diapazon kengayishi bilan birga mazmunan chuqurlashib va aniqlashib boradi. Masalan, Tasnifi Rostning birinchi xonasi 16 taktdan iborat bo‘lgani holda, yettinchi xona 94 taktni tashkil etadi.

Mazmunning chuqurlashib borishini taktlar hajmi aniqlay olmaydi, albatta. Lekin maqom cholg‘u yo‘llarining ma’lum qismlari shaklida xonalar o‘z funksiyasi nuqtai nazaridan kuylarga hech qanday formal xarakterdagi vosita sifatida kiritilmaydi, balki har bir xonaning o‘ziga xos funksiyasi bo‘ladi.

Cholg‘u yo‘llaridagi maqom xonalarining kengayib borishida ko‘pincha peshrav deb atalgan kuy qismlari katta rol o‘ynaydi. Peshrav ilgariga, ya’ni yuqoriga harakat etuvchi motivlar ifodasi bo‘lib, ular bir xonaning kuy xarakatida turli balandliklarda bir necha bor takrorlanadi va bozgo‘yga kelib qo‘shiladi. Ular ham kuyning rivojlanishida juda katta ahamiyatga egadir. Shu bilan birga, turli balandliklarda takrorlanuvchi motivlar sifatida melodik-intonatsiyaga boy hamda kuchli emotsiyal ta’sir kuchiga ega. Peshravlar kishining ruhiga shijoat baxsh etadi va uni ruhiy tushunliklardan holi qiladi, kishining orzu-umidlari, istaklari, kelajakka ishonch kayfiyatlarini aks ettiradi □. Shuning uchun ham peshravlar masalasi alohida o‘rganilishi lozim. Shuni ham aytish kerakki, peshravlar ashula yo‘llarida, xususan Saraxborlar, ba’zi Nasr yo‘llarida ham uchrayди.

Shunday qilib, Tasniflar maqomlarning yirik shakldagi cholg‘u yo‘llari bo‘lib, ular keng diapazonga ega, ba’zan esa ikki oktavadan ham ortiqroqdir. Tasniflar Buzruk maqomida 212, Rostda 338, Navoda 114, Dugohda 150, Segohda 125, Iroqda esa 326 taktdan iboratdir. Bu narsa Tasnif yo‘llari hajmining ancha katta ekanini ko‘rsatadi.

Tasniflar maqom cholg‘u yo‘llarining asosiy mavzui sifatida, ularning boshqa qismlarida ham kuchli iz qoldirgan. Tasniflardagi ko‘pgina motivlar va kuy jumlalari Tarje’, Muhammas, Saqil kabi maqom qismlarida ritmik yoki melodik variatsiyalar sifatida uchrab turadi.



Tasnif yo‘llari kishiga umid, ko‘tarinki ruh baxsh etuvchi kuy yo‘llari bo‘lsa, Tarje’lar tantana, shodiyona kayfiyatlarni ifodalovchi kuylardir. Tarje’lar asosan, Tasniflardan keyin ijro etilib, Rostdan boshqa hamma maqomlarda mavjud. Ular maqomlarda: Tarjei Buzruk, Tarjei Navo, Tarjei Dugoh, Tarjei Segoh, Tarjei Iroq deb nomlanadi.

Tarje’larning takt-ritm o‘lchovi Tasniflardagi kabi ( ) bo‘lib, doyra usuli asosan to‘rt taktli, Iroq maqomda esa u besh taktni tashkil etadi. Usul sur’ati esa Tasniflarga ko‘ra tezroq bo‘ladi. Buzruk, Navo, Dugoh, Segoh maqomlarida Tarje’larning doyra usuli shunday:



Shuningdek, Tarjei Dugohning bozgo‘yi boshqa xonalar bilan birlikda Tasnifi Dugohni eslatadi. Tarjei Segoh doyra usuli, kuy xarakati, xonalar tarkibidagi kuy jumllalari nuqtai nazardan Tasnifi Buzrukning ma’lum melodik varitsiyasidir. Tarjei Segohning birinchi xonasidagi peshrav tuzilmasi keyingi xonalarda uning o‘ziga ko‘ra tersiya darajasiga ko‘tarilib, rivojlantiriladi, so‘ngra sekin-asta, o‘zi boshlangan nuqtaga qaytib tushadi hamda har bir xona bozgo‘ylar bilan yakunlanib boradi. Uning bozgo‘yi Tasnifi Buzrukdagidan tamoman boshqadir. Tarjei Iroqning tuzilishi va peshrav epizodlariga kelsak, ular juda ham murakkab va shu bilan birga, o‘ziga xosdir. Bu yerda boshqa maqom cholg‘u yo‘llaridagi jumllalar kamroq uchraydi. Qisqa qilib aytganda, maqomlarning cholg‘u bo‘limining Tarje’ yo‘llarida kuy ohangi nuqtai nazaridan ba’zi umumiyliliklar mavjud.

Shashmaqomning cholg‘u bo‘limidagi qismlaridan yana biri Gardun, deb ataladi. Gardun – osmon gardishi, aylana, taqdir ma’nolarida keladi. Musiqa istilohida esa Gardun – ma’lum doyra usulining hamda shu usul jo‘rligida muayyan lad (maqom)ga muvofiq ravishda ijro etiladigan kuy yoki ashulaning nomidir.

O‘tmishda, XIII-XVII asrlarda yozilgan musiqa risolalarida Gurduniya yoki Gardoniyya nomlari bilan atalgan maqom sho‘balari haqida gapiriladi. Ularning bizgacha yetib kelgan shakli Shashmaqomdagi Gardun yo‘llaridir.

Gardunning takt-ritm o‘lchovi juda murakkab  $\frac{8}{4}$  ( $\frac{2}{4} + \frac{3}{4} + \frac{3}{4}$ ) doyra usuli esa quyidagichadir:



Gardun cholg‘u yo‘llari Iroqdan boshqa hamma maqomlarda mavjud bo‘lib, ular Garduni Buzruk, Garduni Rost, Garduni Navo, Garduni Dugoh, Garduni Segoh nomlari bilan mashhurdir. Gardun yo‘llari unchalik katta hajmda bo‘lmasa-da, kuy tuzilishi va harakati nuqtai nazaridan Tasnif yoki Tarje’larga ko‘ra ancha murakkabdir.

Gardun yo‘llarida bozgo‘y hamma xonalardan keyin kelavermaydi, balki ko‘pincha ikki-uch xonalardan so‘ng takrorlanadi. Kuyning yo‘nalishida esa katta intervallardagi ohang aylanmalari juda tez uchrab turadi. Bunda tersiya, kvarta darajasida baland yoki pastga sakrashlar, kvinta, oktavaga, hatto undan ham yuqoriga to‘satdan ko‘tarilish hollari ko‘plab uchraydi. Bunday harakatlar maqomlarning boshqa cholg‘u yo‘llarida uchrasa ham, ular Gardun yo‘llari uchun juda xarakterlidir.

Shashmaqomning cholg‘u bo‘limida eng ko‘p uchraydigan qismlaridan biri Muxammaslardir. Ular:

Buzruk maqomida – Muxammasi Buzruk, Muxammasi Nasrulloyi,

Rostda – Muxammasi Rost, Muxammasi Ushshoq, Muxammasi Panjgoh,

Navoda – Muxammasi Husayniy, Muxammasi Navo, Muxammasi Bayot,

Dugohda – Muxammasi Dugoh, Muxammasi Chorgoh, Muxammasi Xojixo‘ja, Muxammasi Chor Sarxona,


Segohda – Muxammasi Segohda, Muxammasi Ajam, Muxammasi Mirza Hakim, Muxammasi Bastanigor,

Iroqda – Muxammasi Iroq nomlari bilan ataladi.

Muhammas- beshlangan, beshlik ma'nosida bo'lib, bu nom juda qadim zamonlardan ma'lumdir. Dastlab, bu ibora bilan doyra usulining bir turi, she'riyatda esa besh misradan tuziladigan she'r shakli ifodalangan.

Yuqorida aytib o'tilgan Kavkabiy va Darvish Ali musiqa risolalaridagi kuy shakllari va ularning ishlash tartibidagi qoidalari qisman maqom cholg'u yo'llariga ham tegishlidir. Hozirgi kunda bu masalani ko'z oldimizga keltirish qiyinroq bo'lsada, Muxammas, Saqil va boshqa cholg'u yo'llari ma'lum kuy mavzularini ritmik ham melodik variatsiyalar sifatida qayta ishlash, rivojlantirish, ularga turli xona hamda bozgo'ylar kiritish orqali yangi-yangi shakllarga tushirilib ishlangan.

Muxammaslarning takt-ritm o'lchovi  $\frac{2}{4}$  yoki  $\frac{4}{4}$  bo'lib, doyra usuli esa haddan tashqari uzun, ya'ni  $\frac{2}{4}$  bo'lganda 16 TAKT,  $\frac{4}{4}$  bo'lsa 8 taktni tashkil etadi:



Muxammas cholg'u yo'llari uchun eng xarakterli narsa shuki, ularda xona va bozgo'ylar doira usuli hajmidagi bir xil o'lchovda, 16 (yoki 8) taktdan iborat bo'ladi, ya'ni Muxammas doyra usuli har bir xona va bozgo'y hajmini belgilaydi. Ba'zan kuy o'z xarakatida avjga yetganda, bozgo'yga qaytib tushishi uchun bir xona kifoya etmay qoladi. Shuning uchun ko'pincha avjda ikki-uch xona ketma-ket ijro etilib, so'ngra bozgo'yga yetib kelinadi.

Muxammaslarda bir-biriga o'xshagan unsurlar ko'plab uchraydi. Bunda u yoki bu kuy bo'lagi turli maqomlarning ruhiga moslashtirib olinadi. Masalan, eshituvchiga ma'lum bo'lgan Muxammasi Ushshoqning boshlanishidagi xonani olib qaraylik: (Muxammaslarning doyra usuli yuqorida keltirilgan edi).

Xuddi shu muxammasning ma'lum unsurlari va variantlarini Muxammasi Rostda, Muxammasi Buzrukning II xonasida, Muxammasi Nasrulloyi xonalarida, Muxammasi Bayotda, Muxammasi Husayniy, Muxammasi Dugohda, Muxammasi Hojixo'jada, Muxammasi Iroqda (II, V xonalar). Muxammasi Ajamda (II, III, VI xonalar), Muxammasi Mirza Hakimda (V xona) va boshqalarda uchratish mumkin.



Muxammaslarda maqomlarning cholg‘u bo‘limidagi boshqa qismlarida mavjud bo‘lgan ko‘pgina unsurlar ham uchraydi. Chunonchi, Muxammasi Bayot boshlanish jumlesi Muxammasi Ushshoq mavzusi bilan o‘xshashdir. Muxammasi Bayot, Muxammasi Ushshoqning kuy jumlesi bilan boshlansa-da, keyinroq bir ozq boshqacha bo‘lib ketib, Navo cholg‘u yo‘llariga tushib oladi. Muxammasi Bayotning kuy unsurlari Muxammasi Rost (I, II xonalar), Muxammasi Husayniy, Navo, Muxammasi Hojihojja (1 xonaning boshi)larda uchraydi(2).

Bu hol Muxammaslarning badiiy-estetik qiymatini kamaytirmaydi, balki turli cholg‘u yo‘llarida o‘rniga qarab, ularning tarkibiy unsurlarini turli-tumanligi, originalligini saqlagan holda rang-barangliligin ta’minlaydi, kuyning tugallangan shaklga kelishiga yordam beradi.

Ba’zi Muxammaslar o‘z mualliflari bilan qo‘shib atalgan. Nasrulloyi, Husayniy, Hojixo‘ja, Mirza Hakim kabilar ma’lum kuylarni Muxammas usuliga tushirib, basta qilgan ijodkor-sozandalar ismidir.

Muxammas yo‘llarining tuzilishi, doyra usuli ham juda murakkab bo‘lsa-da, ular maqomlarning boshqa cholg‘u yo‘llaridan ko‘ra mashhurroqdir. Buning sababi, Muxammas yo‘llarida kuyning jozibadorligi, emotsional jihatdan ta’sirchanligi, ularning murakkab qiyofasiga qaramay eshituvchiga oson yetib borishidadir.

Maqomlarning cholg‘u bo‘limidagi qismlaridan eng ko‘p uchraydigan yana bir turi Saqillardir. Saqil – arabcha bo‘lib, “og‘ir, vazmin, cho‘zilgan”, demakdir. Musiqa istilohida esa vazmin sur’atda ijro etilib kelingan murakkab doyra usulining nomidir. Saqillarga xos melodik xususiyat, ijro etish uslubi Shashmaqomda tasodifiy qabul etilmagan bo‘lsa kerak. Chunki Buxoro maqomlarida Saqillardan so‘ng, ularning ashula bo‘limiga o‘tiladi. Ashula bo‘limi esa vazminroq ijro etilib kelingan Saraxborlar bilan boshlanadi. Saqil o‘zining doyra usuli xususiyati bilan Saraxborlarga oson ulanib ketadi va o‘rtada usul sur’ati jihatidan ham kuchli burilish sodir bo‘lmaydi.

Eski musiqa risolalarida Saqil usuli turli ko‘rinishda keltiriladi. Shashmaqomda esa Saqillar takt ritm o‘lchovi  $\frac{2}{4}$  ba’zan  $\frac{4}{4}$  bo‘lib, doyra usuli esa

Muxammaslarga ko‘ra yanada uzunroqdir, ya’ni yigirma to‘rt takt yoki  $\frac{4}{4}$  bo‘lganida o‘n ikki taktni tashkil etadi



Saqillar Buzruk maqomida – Saqili Islimxon, Saqili Sulton, Rostda Saqili Vazmin, Saqili Rag-Rag (Rag-Ragning asl ma’nosini noma’lumdir. Rag hindcha maqom so‘zining ifodasi bo‘lsa kerak), Navoda – Saqili Navo, Dugohda Saqili Ashqullo, (Segoh maqomida uchramaydi) Iroqda – Saqili Avval, Saqili Duvvum, Saqili Kalon nomlari bilan ataladi.

Saqillarda ham, Muxammaslardagi kabi xona va bozgo‘ylar hajmi doyra usuli bilan teng bo‘ladi. Saqili Islimxon esa xonalardangina iborat. Saqillarda ham ba’zan Tasnif, Tarje’, Muxammaslarda mavjud bo‘lgan kuy unsurlaridan foydalanilgan.

Saqillarni ishlagan – Islimxon, Sulton, Vazmin, Kalon turli davrlarda yashagan bastakorlardir. Lekin bu bastakorlar haqida manbalarda hech qanday ma’lumot yo‘q. Faqatgina Islimxon Kavkabiy davri (16 asr)da yashagan shoir va bastakor ekani haqida ba’zi ma’lumotlarni uchratish mumkin.

Shashmaqomning cholg‘u bo‘limlarida bir xil nomli qismlari, asosan shulardan iboratdir. Bularidan tashqari, ba’zi maqomlarning o‘zigagina xos bo‘lgan boshqa nomlar bilan ataluvchi cholg‘u yo‘llari ham bor. Ular Navo maqomida Nag‘mayi Oraz, Dugohda Peshravi Dugoh, Samoyi Dugoh, Segohda Hafifi Segoh nomlari bilan ataladi.

Nag‘mayi Oraz, asosan Tarjei Navoga asoslangan bo‘lib, uning ma’lum melodik variatsiyasidir. Hatto uning doira usuli ham Nag‘mayi Orazda saqlangan. Nag‘mayi Oraz Navo maqomidagi boshqa cholg‘u qismlari kabi surnay yo‘llari sifatida ham mashhur bo‘lgan.



Peshravi Dugoh Tarje' usulida bo'lib, bunda xona va bozgo'ylarning har biri soni teng sakkiztadan iborat. Bu cholg'u yo'li Peshravning bizgacha yetib kelgan eng xarakterli ko'rinishidir. Bunda xonalar va bozgo'y yo'nalishi yuqoriga xarakat etadi.

Samoyi Dugohning tuzilishi ham peshravga yaqindir. Uning doyra usuli sakkiz taklili bo'lib, bozgo'y xonalar hajmiga teng.



Samoyi Dugoh musiqa cholg'ularida va surnayda maqom turkumlaridan ajratilgan holda juda ko'p ijro etilib kelingan mashhur kuylardandir. Uning Ufar usulidagi varianti ham ko'plab ijro etiladi.

Xafifi Segohning ham takt-ritm o'lchovi, doyra usuli Tarjelardagidek, Samoyi Dugohga o'xshash xona va bozgo'ylar hajmiga teng (sakkiz taktdan).

Xafif – yengil ma'nosida bo'lib, doira usuli va aruz vaznida ma'lum turoq o'lchovining ifodasidir. Demak, Xafifi Segoh shu nomli doyra usulidagi kuy yo'llaridandir.

Xulosa Shashmaqom o'ziga xos ohangdorlik, zo'r emotsiyal ta'sir kuchiga ega. Ularning tuzilishi esa juda ham murakkab bo'lib, o'ziga xos xususiyatlarga ega. Musiqashunos olimlar maqomlar ustida ilmiy ishlar olib borib, ularning ритмик xususiyatini o'rganganlar.

Shunday qilib, bastakorlik an'anasi faqatgina O'n ikki maqom turkumining rivojlanishidagina emas, balki Shashmaqomning shakllanishi, paydo bo'lishi va so'nggi davrlardagi taraqqiyotida ham hal etuvchi ahamiyat kasb etdi. Xulosa qilib aytganda, maqomlar Sharq xalqlarida juda qadim zamonlardan mavjud bo'lgan musiqa janridir. Ular bu xalqlarning o'ziga xos musiqa boyliklari asosida kasbiy sozanda va xonandalar tomonidan yaratilgan va uzoq madaniy-tarixiy taraqqiyot jarayonida mustaqil musiqa janri sifatida yuzaga kelgan. Maqomlarning lad tuzilmalarida hali ko'pgina aniqlanmagan ритмик ва усул masalalari bor. Bu masalalar keljakda maxsus tekshirishlar olib borishni talab qiladi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

Matyoqubov O. Maqomot. (ilmiy-ommabop monografiya) T., 2004.



Ibrohimov O. Maqom va makon. (ilmiy monografiya) T., 1997.

1. O`ZBEK XALQ MAHALLIY MUSIQA USLUBLARINING SHAKLLANISH JARAYONLARI Xamdamov Bekmurod Bobomurod o`g`li, Annakulova Dildora Baymuratovna Vol. 13 No. 2 (2025): FARS International Journal of Education, Social Science & Humanities.
2. Begmatov, M. Matyoqubov O'zbek an'anaviy cholg'ulari. "Yangi nashr" T., 2008.